

**TARIXIY ROMANDA TABIB OBRAZI**  
**(ODIL YOQUBOVNING “KO’HNA DUNYO” ASARI MISOLIDA)**

**Go‘zalxon Muhammadjonova**  
*filologiya fanlari doktori, dotsent*  
**Shohinaxon Farhodjonova**  
*FarDU talabasi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada badiiy psixologizmning tabib obrazi orqali tasvirlanishi Odil Yoqubovning “Ko’hna dunyo” romanidagi Abu Ali ibn Sino prototipi misolida o’rganiladi.*

**Annotation.** *In this article, the description of literary psychologism through the image of doctor is studied on the example of the prototype of Avicenna in the novel “Old World” by Adil Yakubov.*

**Kalit so‘zlar:** *roman, prototip, badiiy psixologizm, obraz, Abu Ali ibn Sino, tipiklashtirish, tabib obrazi, badiiy mahorat.*

**Key words:** *novel, prototype, literary psychology, image, Avicenna, typification, the image of doctor, literary skill.*

Har qanday badiiy asarda qatnashgan obraz yozuvchi mahoratining namunasi hisoblanadi. Yozuvchi obraz yaratishda tipiklashtirishning rang- barang usullaridan foydalanadi. Bu o’rinda realizm adabiyotida keng qo’llanilayotgan badiiy obraz yaratishning ikki usulini keltirish mumkin: jamlash yo’li orqali obraz yaratish va prototip asosida badiiy obraz yaratish. Prototip asosida obraz yaratishning xarakterli jihati shundaki, bunda hayotda mavjud bo’lgan tarixiy shaxs badiiy obrazning asosida turadi. Prototipli obraz yaratish jarayonida ham xuddi jamlash yo’li bilan obraz yaratilayotganidek, hayot hodisalari tipiklashtirib ko’rsatiladi, badiiy to’qimadan ma’lum me’yorda foydalaniladi [1, 55]. O’tgan asrning sermahsul ijodkorlaridan biri Odil Yoqubovning tarixiy romanlaridagi bir qator obrazlar borki, ulug’ allomalar, tarixiy shaxslar asosida shakllanadi. Jumladan, “Ko’hna dunyo” romanida tabib obrazini yaratishda qomusiy olim Abu Ali ibn Sino prototip hisoblanadi. Ijodkor obrazni to’laqonli shakllantirishda badiiy psixologizm, personajlar nutqidan mohirona foydalanadi. Xususan, Abu Ali ibn Sinoning bolalik davrlari tasvirida ilk tabiblik salohiyatiga ta’sir qilgan omillar keltirib o’tiladi, u tengdoshlaridan farqli o’laroq “gohi-gohida bozorlarda, attorchilik va baqqolchilik rastalarida, faqir kitobfurushlarning g’arib do’konlarida...” , “ attorlar rastasida allaqanday giyohlarni hidlab, eski kitoblarni titib yurguvchi” o’spirinligi tasvirlanadi. Abu Ali ibn Sinoning yon qo’shnisi bo’lgan Buxoro hokimining bosh tabibi Abu Faysal o’g’lining tarbiyasidan, axloqidan norozi bo’lib, tanbeh berar ekan, Abu Alining iste’dodini ta’kidlab o’tadi: “Ana, kelgindi mirzoning sen tengi farzandi davlatpanohni davolab, behisob in’omlarga sazovor bo’ldi”

. Shu kabi voqealar Abu Halim ibn Abu Faysalning “yuragini kalamushdek kemirgan hasad va raqobat tuyg‘usi” uyg‘onishiga sabab bo‘ladi. Oradan ko‘p yillar o‘tib tabiblik qilayotgan, Abu Shilqim laqabini olgan Abu Halim goho “ biror sabab bilan dongdor hakimlar yoxud xorijiy sayyohlar majlisiga kirib qolgudek bo‘lsa, aksar hollarda yana o‘sha bir mahallar kitobdorlar va giyohvandlar do‘konlarida ivirsib yurguvchi yosh tabibning nomi tilga olinar...” , “ ...go‘yo bu xayolparast tabib tibbiyot bobida tengsiz alloma bo‘lgan emish, ajaldan boshqa neki kasal bo‘lsa, hammasiga davo topar emish! “Qonun” degan bir kitob bitgan emishkim, bu kitobni oltinga ham topib bo‘lmas emish! “ kabi ta’riflarni eshitar va yuragidagi hasad olovi halovatini buzar edi. Asarda keltirilgan ushbu obraz voqealar rivojida soxta Abu Ali ibn Sino bo‘lib, firibgarlik bilan kun kechirar edi. Og‘ir dardga chalingan Mahmud G‘aznaviy esa Abu Alining saroyga kelishini “farmoni oliy” etgan edi. Biroq bir necha oylardan buyon Abu Ali ibn Sinoni topa olmay, sulton qahridan qo‘rqqan amaldorlar Abu Hasanak va Ali G‘arib soxta Abu Alini saroyga olib borishni maslahat qiladilar

Romanda tabib obrazining o‘ziga xos jihatlari asarda keltirilgan obraz psixologizmida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Badiiy asarda inson obrazini yaratishdagi muhim unsurlardan biri bo‘lgan badiiy psixologizm personaj ruhiyatining ochib berilishi, uning xatti- harakatlari, gap - so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishida ahamiyatlidir. Muallif qahramonning tabib bo‘lishga ahd qilgan bolalik davrini tasvirlar ekan, tabib obrazining shakllanishi va rivojlanishi ketma- ketlikda yoritiladi. Jumladan, to‘rt yoshli ibn Sino tog‘asining katta qizi Gulruxsorni o‘z tug‘ishgan opasi Gulnoradan ham yaxshi ko‘radi, lekin suyukli opasi og‘ir dardga chalinib bevaqt vafot etadi. Ayni shu vaziyatda ibn Sino onasining “ Buxoroda bo‘lib yaxshi hakimlar ko‘rganida, shifo topib, tuzalib ketarmidi opajoning! Bu yerda na bir yaxshi tabib bor, na bir habib...” , “ Kim bilsin, yaxshi hakim bo‘lganida opajoningdan ayrilmasmidik...” kabi iztiroblari yosh bolaning murg‘ak qalbida hakimlikka qiziqishni uyg‘otadi. “Ibn Sino giyohlar to‘g‘risidagi ilk saboqlarni avval mashhur arab allomasi Abubakr Ar- Roziy, keyin Buqrot hakim bilan Jolinus kitoblaridan o‘qib bilgan, biroq eng katta ilmni Afshona qirlari ortidagi saksovulzor qumliklarni yayov kezgan chog‘larida, avom bo‘lsa ham, giyohlar sirini yaxshi bilgan cho‘pon- cho‘liqlar davrasida orttirgan edi” . Adabiyotshunoslikda personaj o‘y - kechinmalari, his- tuyg‘ularining “ ichki monolog” , “ ong oqimi ” tarzida yoki muallif tilidan bayon qilinishi psixologik tasvirning bevosita shakli ekan, muallif ham romanda Abu Ali ibn Sinoning o‘y-kechinmalari tasviri orqali tabib obrazining psixologizmini yoritadi: “ Ajal! Hayot va o‘lim! Mana, salkam qirq yildirki, bu yechilmas tugun Ibn Sinoning xayolini betinim band etib keladi, bu chigal asorning tagiga yetish orzusida u qay ko‘chalarga kirib chiqmadi, ne- ne dorularni yaratmadi! Tirik mavjudot borki, chumolidan torib bani odamgacha – hammasi to‘rt unsurdan – tuproq, suv, olov va havodan barpo bo‘lgani ayon unga!Bu olamning yaratilishi, tabiat hodisalarining bir- biriga chambarchas bog‘lanib ketishi metin bir qonuniyatga asoslanganini, qonuniyat esa o‘z navbatida buyuk bir zarurat poydevoriga

qurilganini anglab oldi. Faqat bu qonuniyatning tagiga yetmoq, bu ulug‘ zaruriyatni anglamoq qoldi”. U tabobatga ixlos qo‘yibdiki, olamda neki dard bo‘lsa, hammasini bilishga harakat qildi, ularga davo qidirib, “ salkam uch ming giyohning shifobaxsh sirlarini o‘rganib chiqdi “. Ibn Sino tabib sifatida kasalliklarni ikki guruhga : sodda va murakkab turga ajratadi va shunga qarab “murakkab va sodda dorular yaratadi” . Turli shifobaxsh giyohlardan yaratilgan dorilar o‘jizlik qilganda jarrohlik san‘atini ishga soladi, “ o‘nlab jarrohiya asboblarni o‘ylab topadi va shu yo‘sin ming - minglab xastalarning davosiz dardlarini daf qilib, duolarini oladi. Faqat, hayhot, o‘limga davo topmadi!” Shuningdek, tasvirlardagi ichki(psixologik) konflikt tabib ruhiyatidagi ziddiyatlarni, o‘zgarishlarni yoritishda muhim ahamiyatga ega : “ Hayot ne? O‘lim ne? Agar bu noraso olamdan boshqa olam, boshqa hayot bo‘lmasa, bani odam nechun kelib, nechun ketdi? Har safar uning dorulari kor qilmay, biror o‘jiz banda qo‘lida jon taslim qilganida bu notinch o‘ylar, bu shakkok fikrlar unga oylab tinchlik bermaydi”. Romanning o‘n beshinchi bob, uchinchi qismida keltirilgan bemor qizaloq voqeasi ham tabib shaxsiyatini yoritib berishda muhim hisoblanadi: “ Eri o‘lib, tul qolgan yoshgina , ko‘hlikkina bevaning 3-4 yashar bir qizchasi bo‘lardi. Ibn Sino bevaning tashqi hovlisida turar, beva esa qizi bilan ichkari hovlida yashardi. Tili chuchuk, ko‘zlari ko‘m -ko‘k bu qizaloq sal o‘tmay uni o‘z otasiday sevib qoldi. Yozda, ayni saraton chog‘larida, Ibn Sino Isfahonga safar qildi-yu, u yerda bir- ikki hafta qolib ketdi. Qaytib kelsa, qandaydir taomdan zaharlangan qizaloq o‘lim to‘shagida qovurilib yotar, aqli hushini yo‘qotib qo‘ygan beva nima qilishini bilmas edi. Ibn Sino darhol muolajaga kirishdi. Huqna qildi, har xil dorular berdi. Uning davosidan keyin behush yotgan qizaloqning yuziga qon yugurib, ko‘zini ochdi, uni tanidi chog‘i ko‘kargan lablarini bazo‘r qimirlatib: “ Ota! Otajon!” – deb pichirlagan bo‘ldi-yu, ko‘zini qayta yumdi. Shu-shu Ibn Sino qancha urinmasin, qizaloq ko‘zini ochmadi. O‘sha kecha, quloqlari ostida bevaning betasalli nolasi, qo‘lida jonsiz qizaloq, Ibn Sino hovlida ko‘kka tikilib tong orttirdi! Dilida ko‘kning qudratiga shubha va isyon, xayolida o‘lim va hayot haqida eski notinch o‘ylar, u tong otguncha mijja qoqmad. Keyin esa go‘yo begona qizaloq emas, o‘z pushtikamaridan bo‘lgan jigarbandidan ayrilganday bir necha oygacha iztirob chekib yurdi”. Yuqoridagi tasvirlarda ham ko‘rish mumkinki, tabib bemori bilan ruhan bog‘lanib qolgan va bemorni davolay olmagani uchun qattiq iztirob chekadi, ruhiyatida o‘zgarishlar yuz beradi. Ijodkor ham aynan shu kabi tasvirlar orqali tabibning ichki olamini, ruhiy kechinmalarini yorqin aks ettiradi

“Yozuvchi tarixiy yoki mashhur shaxs hayotini badiiyat vositalari bilan mustaqil, o‘zicha tadqiq etgan, o‘sha shaxs haqidagi o‘zining original badiiy konsepsiyasini ilgari surolgan taqdiridagina asl muddaoga erisha oladi, tarixiy yoki mashhur shaxs obrazining salmog‘i, ta‘sirchanligi o‘sha shaxsning hayotdagi o‘rni, obro‘- e‘tibori bilan emas, hammadan burun yozuvchining dahosi, mahorati, g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasining orginalligi, haqqoniyligi, ko‘lamdorligi bilan belgilanadi”[2, 227]. Darhaqiqat, Odil Yoqubov ham “Ko‘hna dunyo” romanida tarixiy shaxs – Abu

Ali Ibn Sino hayoti va faoliyatini tarixiy manbalar asosida badiylashtirish bilan birga, adabiyotda tabib obrazining o'ziga xos jihatlarini keng yoritib bera oldi. Voqealardagi murakkab vaziyatlar, keskin, qaltis holatlar tabib obrazining badiiy psixologizmni ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Iste'dodli ijodkorning badiiy mahorati aynan tarixiy shaxsni hamda tarixiy haqiqatlarni badiiy adabiyotga ko'chirgan holda tasvirlashida yanada yaqqol namoyon bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.
2. Normatov U. Qalb inqilobi. – Toshkent: G'.G'ulom, 1986.
3. Quronov D. Adabiyotshunosikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy, 2004.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
5. Qayumov Aziz. Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987.
6. Yoqubov O. Ko'hna dunyo. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022.
7. Mukhammadjonova Guzalkhan. Psychological analysis from portrait.// Current research journal of philological sciences. Volume 02 Issue 05, 2021.